O’zbekiston suv havzalarida kamyob qush turlarining monitoringi olib borildi

O’zR FA Zoologiya instituti tayanch-doktoranti Javlon Yorqulov tomonidan Buxoro va Navoiy viloyatlarining Oyoqog'itma, Qora-qir, Zikri, Xadicha ko’llari, Sho’rko’l, Quyimozor va To’dako’l suv omborlarida hamda “Jayron” pitomnigi hududida Zarafshon vodiysining kamyob qushlari monitoringi olib borildi.

Tadqiqot davomida Zarafshon qirg'ovuli, yo’rga tuvaloq, jo’rchi, kichik qorabuzov, qoravoy (karavayka), qizilg’oz (flamingo), kichik oq qarqara, vishildoq oqqush, qiyqirdoq oqqush, qoshiqburun, ukki, marmar churrak, cho’l jiqtog’i, bigiztumshuq, boltayutar kabi noyob qush turlarining tarqalishi,ularning soni, oziqlanishi va ko’payishi bo’yicha yangi ma’lumotlar olindi.

Zarafshon qirg’ovuli

jo’jasi

Haqqush polaponlari va tuxumi

Qoshiqburun, jiyron qarqara, karavayka va kichik oq qarqaralar koloniyasi

Bundan tashqari, Buxoro viloyati hududida ko’kqarg’a, yashil kurkunak, havorang ko’ktarg’óq, boyo’g’li, haqqush, jiyron qarqara, kulrang qarqara, qizil o’rdak, zag’ça va boshqa ko’plab qushlar ko’payishi va tarqalishiga oid ma’lumotlar to’plandi.

Qoshiqburun tuxumi va polaponlari

Haqqush polaponlari

Kulrang qarqara polaponlari